




Xorazm viloyatining sanoat ishlab chiqarishi (2021- yil yanvar-avgust)

Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so'm, fizik hajm indeksi, % da



Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2021- yilning yanvar-avgust oyida viloyat sanoat korxonalarini tomonidan 7 109,6 mld. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2020 - yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi* 110,7 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 96,015 % ni tashkil etdi.


Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi

Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi o'sishining asosiy omili ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatida 11,7 % ga o'sishning kuzatilishi bo'lsa, tog'kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida – 18,7 % ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sanoatida - 2,3 % ga, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarini utilizatsiya qilishda – 8,1 % ga kamayishi kuzatildi.

***Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi** – *ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.*



Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1,5 mld. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,020 % ini tashkil etdi. 2021- yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 6 826,2 mld. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 96,015 % ini tashkil etdi. O'z navbatida sanoatning mazkur tarmog'ida eng yuqori ulushga ega avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish 45,3 %, to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish 21,8 %, oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar ishlab chiqarish 17,9 % ni tashkil etganligini ko'rish mumkin.



Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish ulushi - 45,3 %.




To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish ulushi - 21,8 %.



Oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar ishlab chiqarish ulushi -17,9%.




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish sanoati



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalaridan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 71,2 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,001 %) tashkil etdi.

Mazkur tarmoqda eng yuqori ulushni suv yig'ish, qayta ishlash va taqsimlash – 69,1 %, chiqindilarni yig'ish, ishlov berish, yo'qotish, utilizasiya qilish – 30,6 % tashkil etdi.

Joriy yilning yanvar-avgust oylarida elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalaridan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 210,7 mlrd. so'm (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 2,964 %) ni tashkil etdi. Shu bilan birga sanoat ishlab chiqarishning fizik indeksi 97,7 % ni tashkil qildi.





Ishlab chiqaradigan sanoati (qayta ishlash sanoati) da yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdag'i sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish (natura shaklda)

Sanoat mahsulotlari	2021 - yil yanvar-avgust	2020 - yil yanvar-avgust	Farqi +/-
Gidroelektr stansiyalari ishlab chiqargan elektr energiyasi – mln. kVts:	111,5	201,5	-90,0
Issiqlik energiyasi – ming Gkal:	47,7	59,7	-12,0
Yengil avtomobillar (maxsus yengil avtomobilarsiz) – dona:	37 552,0	35 322,0	2 230,0
Maxsus yengil avtomobillar – dona:	8 857,0	5 328,0	3 529,0
Aroq – ming liter:	40,8	230,2	-189,4
Uzum vinosi yoki uzum turupini disterlash natijasida olingan spirt nastoykalari konyak spirtidan tashqari – ming liter:	5,6	8,9	-3,3
Tarkibida 15 % dan ko'p spirt bo'lgan boshqa tabiiy uzum vinolari – ming liter:	368,0	456,0	-88,0
Yumshoq bug'doy va spelta uni – tonna:	58 198,9	61 741,8	-3 542,9
Tozalangan o'simlik yog'i – tonna:	16 248,9	7 576,2	8 672,7
Xo'jalik sovuni – tonna:	3270,5	2955,0	315,5
Paxta tolasi – tonna:	36 108,0	32 795,4	3 312,6
Paxta chigit – tonna:	65 513,7	55 345,3	10 168,4


Sanoat mahsulotlari	2021 - yil yanvar-avgust	2020 - yil yanvar-avgust	Farqi +/-
Paxtadan yigirilgan ip – tonna:	19 728,2	16 801,0	2 927,2

Tarkibida 85 % yoki undan ko‘p paxta tolasi bo‘lgan ip gazlamalar – ming kv.m:

15 961,0 16 283,0 -322,0

Yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarning o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, gidroelektr stansiyalari ishlab chiqargan elektr energiyasi 90,0 mln. kVts. ga, issiqlik energiyasi 12,0 ming Gkal. ga, aroq 189,4 ming litrga, uzum vinosi yoki uzum turupini disterlash natijasida olingan spirt nastoykalari, konyak spirtidan tashqari 3,3 ming litrga, tarkibida 15 % dan ko‘p spirt bo‘lgan boshqa tabiiy uzum vinolari 88,0 ming litrga, yumshoq bug‘doy va spelta uni 3 542,9 tonnaga kamaygan.

Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo‘yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi, % da



2020 - yil yanvar-avgust oylarida o‘rta-quyi texnologiyali ishlab chiqarish 7,0 % ni tashkil qilgan bo‘lsa, 2021 - yil yanvar-avgust oylarida bu ko‘rsatkich 5,9 % ga, o‘rta-yuqori texnologiyali ishlab chiqarish 47,9 % dan 47,2 % ga kamaygan bo‘lsa, yuqori texnologiyali ishlab chiqarish 0,15 % dan 0,18 % ga, quyi texnologiyali ishlab chiqarishning 39,9 % dan 42,7 % ga o‘sishi kuzatildi.

Shuningdek, viloyat sanoatida yuqori texnologiyali tarmoqda 12,7 mlrd. so‘mlik (2020 - yil yanvar- avgust oylarida 8,6 mlrd. so‘m), o‘rta-yuqori texnologiyali tarmoqda 3 358,0 mlrd. so‘mlik (2 791,2 mlrd. so‘m), o‘rta-quyi texnologiyali tarmoqda 421,1 mlrd. so‘mlik (408,8 mlrd. so‘m), quyi texnologiyali tarmoqda 3 034,4 mlrd. so‘mlik (2 327,0 mlrd. so‘m) mahsulotlar ishlab chiqarilgan.



Xorazm viloyati hududlari kesimida sanoat ishlab chiqarish hajmlari

Shahar va tumanlar nomi	2021 - yil yanvar-avgust mlrd. so‘m	Fizik hajm indeksi, % da
Xorazm viloyati	7109,6	110,7
Urganch shahri	1266,9	110,0
Xiva shahri	91,8	107,5
<i>shundan tumanlar,</i>		
Bog‘ot tumani	266,0	109,2
Gurlan tumani	285,8	115,7
Qo‘shko‘pir tumani	202,6	144,1
Urganch tumani	404,3	117,5
Hazorasp tumani	200,8	112,1
Tuproqqa'l'a tumani*	3343,5	106,3
Xonqa tumani	349,1	104,6
Xiva tumani	97,5	61,6
Shovot tumani	394,8	108,4
Yangiariq tumani	108,1	59,3
Yangibozor tumani	98,4	109,7


Yuqorida jadvalning tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, Tuproqqa'l'a tumani, Urganch shahri, Bog‘ot, Gurlan, Qo‘shko‘pir, Urganch, Yangibozor, Shovot, Hazorasp va Xonqa tumanlari sanoati yuqori darajada rivojlangan hududlar hisoblanadi. Ushbu shahar va tumanlarda asosan avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish, to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish,

kiyim ishlab chiqarish, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish va qurilish materialllari ishlab chiqarish faoliyatları yuqori darajada rivojlangan.




Xorazm viloyatida ishlab chiqarish hajmida hududlar sanoat mahsulotlarining ulushi, fizik hajm indeksi, % da

Shahar va tumanlarning ishlab chiqarish salohiyatini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar natijasida, 2020 - yil yanvar-avgustga nisbatan Qo'shko'pir tumanida 144,1 %, Urganch tumanida 117,5 %, Gurlan tumanida 115,7 %, Hazorasp tumanida 112,1 %, Urganch shahri 110,0 %, Bog'ot tumanida 109,2 %, Shovot tumanida 108,4 %, Yangibozor tumanida 109,7 %, Xiva shahri 107,5 %, Tuproqqa'l'a tumanida 106,3 %, Xonqa tumanida 104,6 % sanoat ishlab chiqarish hajmlari fizik hajm indeksining sezilarli darajada o'sishi kuzatildi.



SANOAT ISHLAB CHIQARISH FIZIK HAJM INDEKSI
2020 - YIL YANVAR-AVGUST OYLARIGA NISBATAN, % DA



Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulush Tuproqqa'l'a tumani (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmining 47,0 %), Urganch shahri (17,8 %), Urganch (5,7 %), Shovot (5,6 %), Xonqa (4,9 %), Gurlan (4,0 %), Bog'ot (3,7 %) hamda Qo'shko'pir (2,9 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Eng past ko'rsatkich esa Xiva tumani (1,4 %), Yangibozor tumaniga (1,4 %) va Xiva shahri (1,3 %) ga to'g'ri kelmoqda.



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsulotini ishlab chiqarish (mlrd. so'm)

Iqtisodiy faoliyat turlari:
**2021 - yil
yanvar-avgust**
**2020 - yil
yanvar-avgust**

**Iqtisodiy faoliyatning alohida turlari
bo'yicha sanoat mahsulotlari ishlab
chiqarish hajmi**

7 109,6
5 827,1

**Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni
ishlash**

1,5
1,3
ulardan:

**Tog'-kon sanoatiga bog'liq boshqa
faoliyat**

1,5
1,3

Ishlab chiqaradigan sanoat

6 826,2
5 535,5
undan:

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish

1 010,9
828,3

**Ichimliklar, tamaki mahsulotlari ishlab
chiqarish**

261,6
196,6

**To'qimachilik mahsulotlari ishlab
chiqarish**

1 548,5
1 116,7

Kiyim ishlab chiqarish

37,5
47,2

**Teri va unga tegishli mahsulotlar ishlab
chiqarish**

3,8
4,0

**Yog'och va po'kak buyumlar, poxol va
to'qish uchun materillallari, ishlab
chiqarish**

19,7
17,7

**Qog'oz va qog'oz mahsulotlarini ishlab
chiqarish**

65,9
37,1

**Yozilgan materiallarni nashr qilish va
aks ettirish**

0,7
0,9


Iqtisodiy faoliyat turlari:	2021 - yil yanvar-avgust	2020 - yil yanvar-avgust
Neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish	0,8	0,3
Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish	15,3	25,0
Asosiy farmasevtika	12,5	8,2
Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish	58,1	63,5
Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish	225,5	182,8
Metallurgiya sanoati	21,4	31,6
Mashina va uskunalardan tashqari tayyor buyumlar ishlab chiqarish	104,3	119,9
Kompyuter va elektron optikali mahsulotlar ishlab chiqarish	0,2	0,3
Elektr uskunalar ishlab chiqarish	15,0	15,6
Boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalar ishlab chiqarish	108,5	13,2
Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish	3 219,2	2 737,4
Mebel ishlab chiqarish	23,6	19,1
Boshqa tayyor buyumlar ishlab chiqarish	62,1	59,4
Mashina va uskunalarni ta'mirlash va o'rnatish hamda tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish	11,0	10,7
Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash	210,7	239,7
Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish	71,2	50,6




Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash, kichik biznes subyektlari tomonidan zamonaviy texnologiyalar olib kelinishi natijasida, viloyatda 4 466,0 mlrd. so'mlik xalq iste'mol tovarlari ishlab chiqarilib, 2020 - yilning yanvar- avgust oylariga nisbatan o'sish sur'ati 113,5 % ni tashkil etdi.

2021 - yil yanvar - avgust



2020 - yil yanvar - avgust



Oziq-ovqat mahsulotlari

Nooziq-ovqat mahsulotlari

Iste'mol tovarlari ishlab chiqarishda oziq-ovqat mahsulotlari 1 081,6 mlrd. so'mni, alkogol ichimlikar 5,0 mlrd. so'mni va 3 379,3 mlrd. so'mlik nooziq-ovqat mollari ishlab chiqarilib, o'tgan 2020 - yilning yanvar- avgust oylariga nisbatan mos ravishda o'sish sur'ati 119,3 %, 45,9 % va 111,9 % ni tashkil qildi va jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 62,8 % ni (2020 - yil yanvar- avgust oylarida 67,5 %) tashkil qildi.

Nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishda engil sanoat mahsulotlari va kiyim ishlab chiqarish 243,5 mlrd. so'mni, avtomobil ishlab chiqarish 2 574,1 mlrd. so'mni tashkil qilgan va 561,7 mlrd. so'mlik boshqa mahsulotlar ishlab chiqarilgan.



**Xorazm viloyati bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati
(2021 – yilning yanvar-avgust oylarida)**

Shahar va tumanlar nomi	Mlrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, % da	2020 - yil yanvar-avgust oylariga nisbatan, % da
Xorazm viloyati	4 466,0	100,0	113,5
Urganch shahri	687,6	15,4	134,1
Xiva shahri	73,5	1,6	132,4
<i>shundan tumanlar,</i>			
Bog'ot tumani	133,6	3,0	139,1
Gurlan tumani	111,4	2,5	104,7
Qo'shko'pir tumani	65,2	1,4	125,3
Urganch tumani	160,9	3,6	114,5
Hazorasp tumani	61,4	1,4	114,4
Tuproqqa'l'a tumani	2 674,5	59,9	107,6
Xonqa tumani	231,7	5,2	119,4
Xiva tumani	49,3	1,1	98,8
Shovot tumani	97,1	2,2	115,0
Yangiariq tumani	54,2	1,2	101,4
Yangibozor tumani	65,6	1,5	126,8

Shahar va tumanlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat bo'yicha jami hajmidagi eng yuqori ulushi Tuproqqa'l'a tumaniga to'g'ri kelib – 59,9 % ni, Urganch shahrida 15,4 % ni, Xonqa tumanida 5,2 % ni, Urganch tumanida 3,6 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat o'sish sur'ati (113,5 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Bog'ot tumanida

(139,1 %), Urganch shahrida (134,1 %), Xiva shahrida (132,4 %), Yangibozor tumanida (126,8 %), Qo'shko'pir tumanida (125,3 %), Xonqa tumanida (119,4 %), Shovot tumanida (115,0 %), Urganch tumanida (114,5 %) va Hazorasp tumanida (114,4 %) qayd etildi.



**Shahar va tumanlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari
ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati
(2021 - yilning yanvar-avgust oylarida)**

Shahar va tumanlar nomi	Mlrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, % da	2020 - yil yanvar-avgust oylariga nisbatan, % da
Xorazm viloyati	1 081,6	100,0	119,3
Urganch shahri	425,7	39,4	134,8
Xiva shahri	19,9	1,8	88,6
<i>shundan tumanlar,</i>			
Bog'ot tumani	89,0	8,2	117,5
Gurlan tumani	87,6	8,1	145,6
Qo'shko'pir tumani	29,1	2,7	115,4
Urganch tumani	96,6	8,9	103,5
Hazorasp tumani	32,0	3,0	124,4
Tuproqqa'l'a tumani	12,0	1,1	97,2
Xonqa tumani	142,3	13,2	104,8
Xiva tumani	24,0	2,2	80,7
Shovot tumani	54,5	5,0	104,3
Yangiariq tumani	24,7	2,3	99,4
Yangibozor tumani	44,2	4,1	134,1

Shahar va tumanlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Urganch shahriga to‘g‘ri kelib – 39,4 % , shuningdek, Xonqa tumanida 13,2 %, Urganch tumanida 8,9 %, Gurlan tumanida 8,1 % ni tashkil etdi. Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o‘sish sur’atida eng yuqori ko‘rsatkich Gurlan tumanida (145,6 %), Urganch shahrida (134,8 %), Yangibozor tumanida (134,1 %), Hazorasp tumanida (124,4 %) kuzatildi.



**Shahar va tumanlar bo‘yicha nooziq-ovqat mahsulotlari
ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati**
(2021 - yilning yanvar-avgust oylarida)

Shahar va tumanlar nomi	Mlrd. so‘m	Jamiga nisbatan ulushi, % da	2020 - yil yanvar-avgust nisbatan, % da
Xorazm viloyati	3 379,3	100,0	111,9
Urganch shahri	256,9	7,6	138,2
Xiva shahri	53,6	1,6	162,1
<i>shundan tumanlar,</i>			
Bog‘ot tumani	44,6	1,3	219,4
Gurlan tumani	23,8	0,7	51,5
Qo‘shko‘pir tumani	36,1	1,1	134,6
Urganch tumani	64,3	1,9	136,3
Hazorasp tumani	29,4	0,9	105,2
Tuproqqa'l'a tumani	2 662,4	78,8	107,6
Xonqa tumani	89,4	2,6	153,5
Xiva tumani	25,3	0,7	125,6
Shovot tumani	42,6	1,3	132,2
Yangiariq tumani	29,6	0,9	103,1
Yangibozor tumani	21,3	0,6	113,8

Shahar va tumanlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Tuproqqa'l'a tumaniga to'g'ri keldi (78,8 %), shuningdek, Urganch shahrida 7,6 % ni, Xonqa tumanida 2,6 % ni va Urganch tumanida 1,9 % ni tashkil etdi.


Shuningdek, nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat o'sish sur'ati (111,9 %) darajasidan yuqori ko'rsatkichni Bog'ot tumani (219,4 %), Xiva shahri (162,1 %), Xonqa tumani (153,5 %), Urganch shahri (138,2 %), Qo'shko'pir tumani (134,6 %), Urganch tumani(136,3 %), Xiva tumani (125,6 %), Shovot tumani (132,2 %) va Yangibozor tumani (113,8 %) tashkil qildi.

Shahar va tumanlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati (2020 - yil yanvar- avgust oylariga nisbatan, % da)



Iste'mol mahsulotlarini ishlab chiqarish 2020 - yil yanvar- avgust oylariga nisbatan Bog'ot tumanida (139,1 %), Urganch shahrida (134,1 %), Xiva shahrida (132,4 %), Yangibozor tumanida (126,8 %), Qo'shko'pir tumanida (125,3 %), Xonqa tumanida (119,4 %), Shovot tumanida (115,0 %), Urganch tumanida (114,5 %), Hazorasp tumanida (114,4 %), Tuproqqa'l'a tumanida (107,6 %), Gurlan tumanida (104,7 %) va Yangiariq tumanida (101,4 %) sezilarli darajada o'sgan.

Pasayish Xiva tumanida (98,8 %) kuzatildi.





**Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan sanoat mahsulotlari
va iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish
(2021 - yil yanvar- avgust oylarida, ming so‘m)**

Shahar va tumanlar nomi	Sanoat mahsulotlari	2020 - yil yanvar- avgust oylariga nisbatan, % da	Iste’mol mahsulotlari	2020 - yil yanvar- avgust oylariga nisbatan, % da
Xorazm viloyati	3 744,2	109,1	2352,0	111,8
Urganch sh.	8 722,6	109,1	4734,3	133,0
Xiva sh.	978,3	105,8	782,9	130,3
<i>shundan tumanlar,</i>				
Bog‘ot	1 592,0	107,3	799,5	136,7
Gurlan	1 905,9	114,2	742,7	103,4
Qo‘siko‘pir	1 163,7	142,3	374,6	123,8
Urganch	1 999,6	115,3	795,7	112,3
Hazorasp	1 023,0	110,3	312,8	112,6
Tuproqqał'a	59 992,0	105,0	47987,8	106,2
Xonqa	1 848,5	103,0	1226,9	117,6
Xiva	659,9	60,6	334,1	97,1
Shovot	2 293,9	106,9	564,4	113,3
Yangiariq	920,0	58,5	461,6	100,0
Yangibozor	1 115,2	108,3	742,8	125,2

Yuqorida tahliliy jadvalga asosan, joriy yilning yanvar- avgust oylarida aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish viloyat bo‘yicha 3 744,2 ming so‘mni tashkil qilib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan o‘sish sur’ati 109,1 % darajada kuzatildi. Shahar va tumanlar kesimidagi tahlil shuni ko‘rsatmoqdaki,

2020- yil yanvar- avgust oylarida Urganch shahrida 6 842,2 ming so‘mdan 8 722,6 ming so‘mga, Xiva shahrida 809,6 ming so‘mdan 978,3 ming so‘mga, Bog‘ot tumanida 1 118,0 ming so‘mdan 1 592,0 ming so‘mga, Gurlan tumanida 1 423,5 ming so‘mdan 1 905,9 ming so‘mga, Qo‘shko‘pir tumanida 703,9 ming so‘mdan 1 163,7 ming so‘mga, Urganch tumanida 1 302,0 ming so‘mdan 1 999,6 ming so‘mga, Hazorasp tumanida 841,8 ming so‘mdan 1 023,0 ming so‘mga, Tuproqqa‘l a tumanida 51 934,5 ming so‘mdan 59 992,0 ming so‘mga, Xonqa tumanida 1 530,1 ming so‘mdan 1 848,5 ming so‘mga, Shovot tumanida 1 866,1 ming so‘mdan 2 293,9 ming so‘mga, Yangibozor tumanida 514,5 ming so‘mdan 1 115,2 ming so‘mga oshganligi kuzatildi. Sanoati rivojlangan Tuproqqa‘l a tumanida (59 992,0 ming so‘m), Urganch shahrida (8 722,6 ming so‘m) aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish o‘rtacha viloyat darajasi ko‘rsatkichidan (3 744,2 ming so‘m) yuqoriligi kuzatilgan.


Aholi jon boshiga iste‘mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi viloyat bo‘yicha 2 352,0 ming so‘mni tashkil qilib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati 111,8 % ga o‘sishi kuzatildi. Shahar va tumanlar kesimidagi tahlil shuni ko‘rsatmoqdaki, 2020 - yil yanvar-avgust oylarida Urganch shahrida 3 558,3 ming so‘mdan 2021 - yil yanvar-avgust oylarida 4 734,3 ming so‘mga, Xiva shahrida 600,9 ming so‘mdan 782,9 ming so‘mga, Bog‘ot tumanida 584,8 ming so‘mdan 799,5 ming so‘mga, Gurlan tumanida 718,1 ming so‘mdan 742,7 ming so‘mga, Qo‘shk‘opir tumanida 302,6 ming so‘mdan 374,6 ming so‘mga, Urganch tumanida 708,3 ming so‘mdan 795,7 ming so‘mga, Hazorasp tumanida 277,7 ming so‘mdan 312,8 ming so‘mga, Tuproqqa‘l a tumanida 45 170,1 ming so‘mdan 47 987,8 ming so‘mga, Xonqa tumanida 1 043,1 ming so‘mdan 1 226,9 ming so‘mga, Shovot tumanida 498,0 ming so‘mdan 564,4 ming so‘mga, Yangiariq tumanida 461,5 ming so‘mdan 461,6 ming so‘mga, Yangibozor tumanida 593,2 ming so‘mdan 742,8 ming so‘mga o‘sgani kuzatildi. Sanoati rivojlangan Tuproqqa‘l a tumanida (47 987,8 ming so‘m), Urganch shahrida (4 734,3 ming so‘m) aholi jon boshiga iste‘mol mahsulotlari ishlab chiqarilish o‘rtacha viloyat darajasi ko‘rsatkichidan (2 352,0 ming so‘m) yuqoriligi kuzatilgan.



Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

(2021- yil yanvar- avgust oylarida, % da)

Viloyatda yanvar-avgust oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 1 587,0 mlrd. so‘mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 22,3 % ni tashkil etdi. Shahar va tumanlar kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida Tuproqqa'l'a tumani (4,1 %), Shovot tumani (18,2 %), Urganch shahri (21,0 %) va Qo‘siko‘pir tumanida (30,9 %) kichik biznes subyektlari ulushining kamligini mazkur hududlarda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.



Shahar va tumanlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Xiva shahri (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100 %), Xiva tumani (100 %), Yangibozor tumani (100 %), Yangiariq tumani (100,0 %) Urganch tumani (52,6 %), Bog'ot tumani (49,0 %), Xonqa tumani (40,6 %), Gurlan tumani (36,2 %), Hazorasp tumani (32,3 %), Qo‘siko‘pir tumani (30,9 %), Urganch shahri (21,0 %) hissasiga to‘g‘ri kelgan.




Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 929,4 mlrd. soʻmlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishda tutgan ulushi 13,1 % ni tashkil etdi.




Viloyatda faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari (2021- yil 1- sentabr holatiga koʻra)

Viloyatda 2021- yilning 1- sentabr holatiga, 4 110 ta sanoat korxonalari faoliyat koʻrsatmoqda, shundan 835 tasi (faoliyat yuritayotgan korxonalar umumiyligi sonining 20,3 %) Urganch shahriga, 480 tasi (11,7 %) Urganch tumaniga, 363 tasi (8,8 %) Xiva shahriga, 358 tasi (8,7 %) Xonqa tumaniga toʻgʻri kelmoqda.



2021 - yil yanvar – avgust oylarida viloyatda 703 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi. Ulardan 119 tasi Urganch shahrida, 94 tasi Hazorasp tumanida, 67 tasi Urganch tumanida, 68 tasi Xonqa tumanida, 50 tasi Xiva shahrida, 45 tasi Shovot tumanida tashkil etilgan.



Xorazm viloyati statistika boshqarmasi

Sanoat statistikasi bo‘limi
Aloqa telefoni: (62) 224-64-99